Ta‘rif

Xudoyorxon saroyi — 1863-1873 yillarda barpo etilgan bo‘lib, Xudoyorxon Qo‘qon xoni o‘ziga saroy-qo‘rg‘on qurdiradi, u o‘rda deb nomlanib, Buxoro ravog‘iga qarama-qarshi qad rostlagan.So‘nggi Qo‘qon xoni Xudoyorxon tomonidan qurilgan mazkur tarixiy yodgorlik dastlab 3 ta qism va 114 xonadan iborat bo‘lgan. Hozirgi kunda faqatgina so‘nggi qismi va 19 ta xona saqlanib qolgan.

Xudoyorxon davrida qishloq xo‘jaligiga e'tibor berilgan, yangi anhor va ariqlar qazilgan. Qo‘qonda 1873 yilda xon o‘rdasi bitkazilib nihoyasiga yetkazilgan. Bundan tashqari, Xudoyorxon davrida “Madrasai Oliy”, “Madrasai Hokim oyim”, “Madrasai Sulton Murodbek”lar qurilgan. Xudoyorxonning farmoni bilan mahzun (Ziyovuddin Ho‘qandiy) 1696 sahifalik “Shohnoma” asarini yozgan (qo‘lyozma Istambulda saqlanmoqda).

Xudoyorxon davrida xonlik hududi ancha qisqarib, turli soliqlar o‘ylab chiqilgan. Buning ustiga 1868 yilgi Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman bilan tuzilgan “teng huquqli” shartnomaga muvofiq, rus savdogarlariga xonlikning hamma shahar va qishloqlarida bo‘lish va karvonsaroylar qurish, rus tovarlarini xonlik hududi orqali boshqa davlatlarga boj to‘lamasdan bemalol olib o‘tish huquqi berilgan. Ammo, yuzaga kelgan siyosiy vaziyat tufayli u K.P. Kaufman bilan ko‘proq yaqinlashishga majbur bo‘lgan.

Xudoyorxon o‘rdasi - Qo‘qondagi me’moriy yodgorlik (19-asr 2-yarmi); Qo‘qon xoni Xudoyorxon qurdirgan. Me’mor va muhandis Mir Ubaydulla loyihasi va rahbarligida bunyod etilgan; ustalardan Mulla Suyarqul, Solixo‘ja va buxorolik usta Fozilxo‘jalar qatnashgan, koshinlarini rishtonlik kulol usta Abdulla mahorat bilan bajargan. Xudoyorxon o‘rdasi to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli (68x143 m) bo‘lib, sun’iy tepalikka baland g‘ishtin poydevorli qilib qurilgan: xon qarorgohi, o‘rda ahli yashaydigan hamda turli maqsadlarda foydalaniladigan 100 ga yaqin kattakichik xonalar, ichki-tashqi hovlilardan iborat bo‘lgan. Birinchi hovlida ayvon, ko‘rinishxona, xazinaxona, alohida saxdli masjid, markazda xon qarorgohi (shohnishin), salomxona, xo‘jalik binolari, ikkinchi hovlini uning sahni bilan bog‘langan haram va xos xonalar egallagan; haramxonalari bezaklari odmi bo‘lib, asosan, quyma ganch ishlatilgan, haramxonalariga ayvonchaga o‘xshash o‘tish joylari (yo‘laklar) orqali kirilgan.

Xudoyorxon o‘rdasining asosiy sharqiy tomonini tashkil etuvchi peshtoq gumbazli darvozaxona hamda uning ikki qanotida joylashgan xonalargina saqlangan, qolgan qismi buzilib ketgan. Bosh tarzi bir qavatli qilib bunyod etilgan, pishiq g‘ishtdan (26x26x5 sm) ganch suvoqda terilgan devorlarga bir g‘isht chuqurligida ravoqlar ishlangan. Peshtoq o‘rda devoridan birmuncha bo‘rttirib oldinga chiqarib qurilgan, baland va hashamatli, peshtoqning ikki yoni va tarzlarining ikki burchaklarida gumbazli mezanalar bilan yakunlangan guldastalar bor. Peshtoqqa uz. 40 m bo‘lgan qiya yo‘lka (pandus) orqali o‘tiladi. Xudoyorxon o‘rdasi bosh tarzi ravoqdari, peshtoq va guldastalaridagi handasiy naqshlar koshinlar, sirkori parchinlardan mahorat bilan yaratilgan. Peshtoq orqali to‘rtburchak tarhli darvozaxonaga o‘tiladi, darvozaxona gumbazi o‘zaro kesishgan ravoqli asos ustiga qo‘yilgan; gumbaz usti, o‘z navbatida, qubbali mezana bilan yakunlangan, undagi panjarali darchalar orqali ichkariga yorug‘lik tushadi. O‘rdaning bosh tarzi, xonalar koshinlar, o‘yma ganchkori naqshlar bilan bezatilgan, shiftlari hovuzaklibo‘lib,

ularga gullar solingan, xonalarning tepa qismi sharafalar bilan hoshiyalangan, ayrim xonalarning poliga parket terilgan, ayvonlar sahniga marmaryotqizilgan, devorlariga ravoqlar ishlanib, naqshlar bilan ziynatlangan.

1938-yilda Xudoyorxon o‘rdasi me’mor Obid Zayniddinov boshchiligida ta’mirlash loyihasi ishlari olib borildi; ta’mirlashda usta Q. Xaydarov, naqqoshS.Norqo‘ziyev va boshqa ustalar qatnashdi. 1974-yildagi ilmiy ta’mirlash va loyihalash ishlari (me’mori N. Akromxo‘jayev, E. Nurullayev va boshqalar) natijasida saroyning dastlabki holati aniqdandi.

1924-yilda Xudoyorxon o‘rdasida Qishloq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi ochilgan, 1925-yildan Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.